

MEHMONXONADA ISTIQOMAT QILUVCHI SHAXSLARNI KOMLEKS SUG'URTA QILISH MUHIM SHARTLARI

I. SUG'URTA HODISASI

1.1. Quyidagilar sug'urta hodisasi hisoblanadi:

a) Sug'urtalangan shaxsning hohish irodasiga bog'liq bo'lmagan holda kutilmagan hodisalar natijasida tananing jarohatlanishi, jarohatlanish natijasida tana a'zolarini ishlash funksiyasini o'zgarishi yoki o'limga olib keluvchi hodisalar:

-kuyish, muzlab qolish, cho'kish, elektr toki va yashin urishi, tabiat hodisalari (tezligi 20 m/s dan yuqori bo'lgan kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul), juda kuchli jala, sel va sel oqimi, yashin urishi, zilzila, toshqin, ko'chki, do'l, juda kuchli qor yog'ishi), portlash hamda hayvonlar tajovuzi, tishlashi, chaqishi natijasida shikastlanishlar, g'araz niyatli shaxsni hujumi, Sug'urtalangan shaxsning yiqilishi yoki ustiga biror bir jismni tushib ketishi, jismning urilishi, transport vositalarining (avtomobil, poezd, tramvay va boshqalarni) ag'darilishi yoki ularning harakati vaqtida yo'l transport hodisalarida, mashina, mexanizmlardan va boshqa turdagi asboblardan foydalanayotganda olingan jarohatlar, tasodifan nafas olish yo'liga biror narsa tiqilib qolishi, zaharli o'simliklar, kimyoviy moddalar ta'sirida kuchli zaharlanish, tasodifan suyak sinishi, chiqishi, bo'g'im va to'qimalarning uzilishi, tana a'zolarining to'liq yoki qisman yo'qotilishi;

b) Sug'urtalangan shaxsni yuqorida qayd etilgan hodisalar tufayli vafot etishi (tabiiy o'lim, shamollash va kasallik tufayli vafot etishdan tashqari);

d) Mehmonxona ichki tartib qoidalariga ko'ra istiqomat qiluvchining mehmonxona oldidagi fuqarolik javobgarligini yuzaga kelishi.

1.2. Sug'urta puli va sug'urta mukofoti miqdori sug'urta polisida ko'rsatiladi. Mazkur qoida asosida tuziladigan Sug'urta shartnomalari (polisi) bo'yicha sug'urta puli miqdorining:

80 foizi - baxtsiz hodisa;

20 foizi - fuqarolik javobgarligini tashkil etadi.

II. SUG'URTA HODISASI HISOBLANMAYDI

a) Baxtsiz hodisa tufayli Sug'urtalangan shaxsning shikastlanishi (mayib bo'lishi) yoki o'limi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ro'y berganda;

b) Sug'urta qildiruvchining yoki uning topshirig'iga binoan uchinchi shaxsning Sug'urta hodisasi sodir bo'lishiga qaratilgan qasddan ongli ravishda qilgan xarakati;

d) qasddan yoki g'araz maqsadda hayotini xavf ostiga qo'yish (hayotini saqlab qolish uchun qilingan xarakatdan tashqari), o'zi va bironi jarohatlash, mayib qilish, shuningdek Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxs shifokor aytganlarini asossiz va ataylab bajarmasa, befarqlik qilsa;

e) Sug'urta qildiruvchining voqeani sodir bo'lishiga to'g'ridan to'g'ri sabab bo'lgan Sug'urta hodisasini alomatlariga ega bo'lgan qonunsiz xarakat qilishi orqali;

f) Sug'urtalangan shaxs spirtli ichimliklarni, dori darmon preparatlarini, giyohvand yoki toksik moddalarni ta'sir etishi (shifokor buyurganlaridan, uning nazorati ostida va ko'rsatmasi bo'yicha qilingandan kelib chiqqan hodisalardan tashqari), shu jumladan alkogolli ichimlik, giyohvand yoki zaharli moddalar ta'sirida mast holatda (yer usti, suv) transport vositasini boshqarishi, shuningdek ana shu transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo'lmagan spirtli ichimlik, giyohvand yoki zaharli moddalar ta'sirida mast holatda bo'lgan shaxsga boshqarishni berishi;

g) Sug'urta qildiruvchining xarbiy xarakatlar, fuqarolar urushi, xalq ko'tarilishlarida faol ishtiroki, shuningdek Sug'urta qildiruvchining xarbiy xizmat, mashqlar o'tayotgan davrida olgan jarohatlari yoki o'lim;

h) yadro portlashi, radiatsiya va radiaktiv nurlanish, zaharlanish;

i) kasallikni barcha hillari, shu jumladan infarkt, insult va boshqalar.

j) Mehmonxona tomonidan tadbirkorlik xavfiga aloqador xo'jalik ishlari amalga oshirilishi va shu bilan Uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar.

III. SUG'URT PULINI OLIISH UCHUN TAQDIM QILINADIGAN HUJJATLAR

Sugʻurtalangan shaxs (Manfaatdor shaxs) Sugʻurta hodisasi boʻyicha Sugʻurta tovonini olish uchun (Sugʻurta hodisasi roʻy bergan kundan boshlab 30 kun ichida) Sugʻurtalovchiga daʼvo ariza va quyidagi hujjatlar bilan murojaat qiladi:

-Sugʻurta polisi;

-Sugʻurta hodisasini tasdiqlovchi Tibbiy muassasa tomonidan tasdiqlab berilgan kasallik tarixidan koʻchirma;

-FXDYO idorasi bergan oʻlim toʻgʻrisidagi guvohnomaning nusʼhasi;

-Vorislik huquqi toʻgʻrisidagi guvohnoma va boshqalar;

-Zarar miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar (Fuqarolik javobgarligi boʻyicha).

Sugʻurtalangan shaxsiga baxtsiz hodisa tufayli toʻlanadigan Sugʻurta tovonini Jamiyat Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sugʻurta qilishning barcha turlaridan sugʻurta hodisasi natijasida tan jarohati olishi boʻyicha sugʻurta puli miqdorini aniqlash jadvali"ga binoan aniqlanadi.

IV. TOʻLOV MUDDATI

4.1. Sugʻurta qildiruvchi tomonidan sugʻurta hodisasi bilan bogʻliq boʻlgan barcha maʼlumotlar va hujjatlarni toʻliq taqdim qilingandan keyin, Komissiya tomonidan hujjatlar oʻrganib chiqiladi va 15 kun ichida sugʻurta hodisasi yuz berganligi yoki yoʻqligi toʻgʻrisida dalolatnomani tuziladi. Sugʻurta hodisasi yuz berganligi aniq boʻlsa, komissiya sugʻurta qoplamasi (tovoni/puli) miqdorini aniqlaydi hamda hodisa tan olinganligi haqida tuzilgan dalolatnomada aks ettiradi.

4.2. Sugʻurta tovonini dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 3 bank kuni ichida Sugʻurtalangan shaxs (Manfaatdor shaxs)ning bankdagi omonat daftarchasiga, soʻmlik plastik kartochka hisob raqamiga uning yozma arizasiga binoan pul oʻtkazish yoʻli bilan toʻlanadi.

4.3. Sugʻurta qildiruvchining shartnomani (polisni) bekor qilish boʻyicha yozma murojaatiga koʻra, Sugʻurtalovchi Sugʻurta qildiruvchiga shartnomaning oʻtmagan muddatiga mutanosib ravishda sugʻurta mukofotlari qaytarib beriladi. Bunda Sugʻurtalovchining sugʻurta ishini yuritish bilan bogʻliq boʻlgan sugʻurta mukofotining 25 foizi miqdoridagi xarajatlari qaytariladigan sugʻurta mukofotidan chegirilib qolinadi.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Sugʻurta qildiruvchi (Sugʻurtalangan shaxs)ning huquqlari:

a) Sugʻurtalovchidan Sugʻurta shartnomasi shartlari boʻyicha maslahat olish;

b) Sugʻurta hodisasi yuz berganda Sugʻurtalovchidan Sugʻurta shartnoma/polisi boʻyicha qabul qilingan majburiyatlarni bajarishni talab qilish;

d) Sugʻurta tovonini olish;

e) Sugʻurta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish uchun Sugʻurtalovchiga ariza bilan murojaat qilish.

5.2. Sugʻurta qildiruvchi (Sugʻurtalangan shaxs)ning majburiyatlari:

a) Sugʻurta shartnomasi (Sugʻurta polisi) tuzilayotgan yoki amal qilish davrida Sugʻurta qildiruvchi (Sugʻurtalangan shaxs) oʻziga maʼlum boʻlgan, Sugʻurta hodisasi boʻlishi ehtimolini va uni yuz berishi tufayli kutilayotgan zarar miqdori haqidagi maʼlumotlarni habar qilish;

b) yuz bergan hodisa natijasida sogʻligʻiga zarar yetgan hollarda darhol hodisa yuz bergan kundan boshlab 30 kundan kechikmay Sugʻurtalovchini yoki uning vakilini habardor qilish;

d) Sugʻurta shartnomasi tuzayotgan paytda Sugʻurtalangan shaxsni qoida shartlari bilan tanishtirish.

5.3. Sugʻurtalovchining huquqlari:

a) Sodir boʻlgan Sugʻurta hodisasi yuzasidan jinoiy ish qoʻzgʻatilgan holatlarda vakolatli organlarni tegishli qarori qabul qilingunga qadar Sugʻurta tovonini toʻlashni kechiktirish;

b) Sugʻurta qildiruvchi (Sugʻurtalangan shaxs)dan rentgen suratini soʻrash, shifokor - ekspert koʻrigiga yuborish, zarur hollarda Tibbiy muassasalardagi tibbiy kartalari va kasallik tarixidan koʻchirmalarni soʻrash;

d) Sugʻurtalovchi Sugʻurta shartnomasini tuzishda Sugʻurta syurveyeri hamda Sugʻurta hodisalari boʻyicha Adjaster xizmatlaridan foydalanish;

e) Quyidagi hollarda Sug'urta to'lashni rad qilish:

- Sug'urtalovchiga barcha zarur hujjatlar, shuningdek Sug'urta hodisasi hususiyatini aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar taqdim qilinmaganda;
- Sug'urta hodisasi Sug'urta qildiruvchining mehmonxonada bo'lish muddati tugagandan keyin sodir bo'lganda;
- Sug'urta qildiruvchi noto'g'ri ma'lumot taqdim etganda;
- Sug'urta hodisasi sodir bo'lishiga aybdor shaxslarga yoki tashkilotlarga da'vo ishi qo'zg'atilgan bo'lsa.

5.4. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- a) Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs)ni Sug'urta Qoidalarini bilan tanishtirish;
- b) Sug'urta mukofoti to'langandan so'ng Sug'urta polisini yozib berish;
- d) hodisa ro'y berganda Sug'urta qildiruvchiga (Manfaatdor shaxsga yoki vorislariga) Sug'urta Qoidalarida belgilangan muddatda va tartibda Sug'urta to'lovini to'lash;
- e) Sug'urta puli to'lovi rad etilganda Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs)ga yozma ravishda xabar qilish;
- f) Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs)ga Sug'urta shartnomasi/polisi muddati ichida sug'urtaga oid maslahatlar berish.